



TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK MASHG'ULOTLARIDA PERSPEKTIVA QOIDALARINI O'RGATISHNING AHAMIYATI.

I.U. Izbasarov, D.A. Eshberdiyeva, M.N. Xolmuradova. (SamDPI)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at va chizmachilik mashg'ulotlarida perspektiva qoidalarini o'rgatishning ahamiyati, talabalarning mustaqil ijodida tasviriy san'at kompozitsiyalarini yaratish, asardagi ob'ektlarning haqqoniy ko'rinishlarini tasvirlashda perspektivaga oid mavzularni chuqur o'rganishga doir uslublar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *perspektiva, kompozitsiya, chizma geometriya, arxitektura chizmachilik, proporsional, frontal, geometrik shakllar, pozitsion va metrik.*

Abstract: This article provides information on the importance of teaching perspective rules in art and drawing classes, methods for creating compositions as part of student independent work, and methods for in-depth study of perspective-related topics when depicting the realistic appearance of objects in a work.

Key words: *perspective, composition, drawing geometry, architectural drawing, proportional, frontal, geometric figures, positional and metric.*

Muhandislik grafikasi sohasining chizma geometriya va arxitektura chizmachiligi hamda tasviriy sana'tning turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan fan bu perspektivadir. Uning qonuniyatlarini tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohasida tahsil olayotgan har bir talaba yaxshi o'zlashtirishi va bu tushunchalarni o'zining keyingi ijodiy faoliyatida muhimligini anglashi uning kompetensiyasiga kiradi. Chunki birorta haqqoniy tasviriy san'at asari yo'qki perspektiva qoidalari asosida yaratilmagan bo'lsin.

Tasviriy san'at tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak uyg'onish davri rassomlarining ijodidagi interyer va eksteryer tasvirlaridagi barcha kompozitsiyalarda bu yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu bilan shunday xulosaga kelamizki, rassomlarning har biri muhandislik garfikasini mukammal bilishgan va asarlarida rang hamda chiziqli perspektivadan keng foydalanganlar. Tasviriy san'at asarlaridagi ob'ektlarni soyasi bilan qurish reallikni ta'minlaydi, shuning uchun fazodagi har bir jismlarning tushadigan soyalari ham chiziqli perspektiva qonunlari asosida aniqlanadi. [4]

Havo perspektivasida chang ko'tarilishi va suvning bug'lanishi zarralarini o'z ichiga olgan havo ob'ektlarni masofadan qanday ko'rinishiga ta'sir qiladi. Bizdan ancha uzoqlikda joylashgan narsa va ob'ektlar xiraroq, shaffofroq ko'rinadi bunda tus jihatdan yorug'lik va soya o'rtasidagi kontrastlik kam seziladi.

Ko'pincha, masofadagi ob'ektlar yaqin atrofdagi narsalarga qaraganda xiraroq ko'rinadi, yaqindagilarining konturlari va ranglarini biz aniqroq ko'ramiz oldingi fondagi ob'ektlarning kontrasti fondagiga qaraganda ancha yuqori, ya'ni fondagi yorug'lik va soya yanada aniqroq bo'ladi. "Perspektiva tasviriy san'atning rulidir" deb yozgan buyuk rassom Leonardo da Vinchi havo perspektivasi haqida ham shunday fikrni bildirgan: "Masofadagi



narsalar siz uchun noaniq va mavhum ko'rinadi, ularni bir xil noaniqlik bilan bajaring, aks holda ular siz chizgan rasmda bir xil masofada joylashib qoladi". Ko'zdan uzoqda bo'lgan narsalarni chizishda ehtiyotkorlik bilan ishlash lozim, chunki masofada nafaqat bu chegaralar, balki uning qismlari ham sezilmaydi.

Uzoqdagi ob'ektlar, sizning ko'zingiz va ular orasidagi havo miqdori ko'p bo'lganligi sababli, deyarli havo rangi zangoriga o'xshaydi. Bu borada Alberti tomonidan aytilgan aniq so'zlarni keltiramiz: "Uzoq masofagi ob'ektlar va narsalar rang kuchini yo'qotadi va xiralashadi."

Chiziqli perspektivada soyalar yasash nazariyasini to'la yoritgan va perspektiv tasvir yasashda qo'llaniladigan mexanik asbob perspektografni yaratgan shaxs golland matematigi Gravezandt hisoblanadi. Fransuz matematigi va injeneri Gospar Monj (1746-1818) chizma geometriya faniga asos solib, uni ilmiy jihatdan fan darajasiga ko'tara oldi. Monjning noyob asari hisoblanmish "Geometrik descriptive" asari 1798 yilda nashr etildi va u hozirgi kungacha o'z qiymatini yo'qotmagan. Ushbu kitobda fazodagi geometrik obrazlarni usullari ilk marotaba tizimga solingan. Shuningdek, ortogonal proyeksiya va perspektivada soya bajarishga oid ilk urinishlari ham mavjud.[1]

Hozirgi kunda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishida o'qiyotgan talabalarga asosiy mutaxassislik fanlari qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik va muhandislik garfikasi bo'yicha chizma geometriya, amaliy perspektiva, arxitektura-qurilish chizmachiligi kabi fanlarda perspektivaga oid mavzularni o'qitish fan dastrulariga kiritilgan. Bu mavzularda nuqtadan toptib, tog'ri chiziq kesmasi, tekisliklar, yassi geometrik shakllar, geometrik sirtlar, artitektura ob'ektlarining ham perspektiv qurilishi hamda ularning soyalarini yasashning nazariy va amaliy tushunchalari o'rgatiladi.

Borliqni kuzatar ekanmiz, ko'rib turgan har bir narsa, buyumlarni eslab qolishga harakat qilamiz. Yodda saqlab qolish uchun esa, biz har bir elementni tasavvurda tahlil qila olishimiz kerak bo'ladi. Bu jarayonda narsalarning tekislikda perspektivasini yasash eng samarali usul hisoblanadi. Perpektiva qoidalariga rioya qilib chizilgan tasvir chiroyli, aniq va biz kuzatib turgan atrof muhit asl ko'rinishda tasvirlanadi. Shu orqali bu asar kuzatuvchida iliq taasurol uyg'otadi, aks holda «bu asar buzib qo'yilgan» degan xulosaga kelinadi. [3]

Perspektivadan turli soha vakillari ish turiga qarab turlicha foydalanadilar. Masalan: arxitekturada qurilayotgan binoning kompozitsiyasini loyiha bosqichida tekshirib unga tuzatishlar kiritilsa, kriminalistikada avvaldan harakatda bo'lib to'qnashgan mexanizmlarning harakatini tiklash uchun qo'llaniladi, rassom esa chizayotgan tasvirni tekislikda to'g'ri joylashtirish uchun foylanadi.

Leonardo da Vinchining "Sirli oqshom", A.Abdullayevning "Katta oila", I.Ya.Repinning "L.N.Tolstoy kabinetda" va ko'plab mashhur rassomlarning asarlarni tahlil qilib, bu asarlarda perspektivaning juda mohirona ishlanganini aytib o'tilgan. Perspektivani o'rganish talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, fazoviy tasavvurni kengaytiradi, mustaqil fikrlash qobiliyati va loyihalashga oid ko'nikmani egallashga xizmat qiladi. Bunda



yaratilayotgan tasvirdagi barcha detallar tahlil qilinadi, nuqtalar oldindan aniqlab olinib, so'ngra chizma chiziladi.[2]

Tahlil qilish davomida talaba fikrlaydi. Masalan: ochiq, katta yo'ldagi bir xil kattalikdagi daraxtlarni kuzatarkanmiz uzoqdan kichik bo'lib ko'ringan daraxtlar yaqinlashgan sari katta, ortda qolgan daraxtlar uzoqlashgan sari kichrayib bir chiziqli birlashishi guvohi bo'lamiz. Bu holatda perspektivada yer va quyosh ma'lum masofaga boribto'g'ri chiziqli birlashadi, fazoda hosil bo'lgan chiziqli esa –"ufq" chizig'i deb ataladi. Talaba kartina tekisligida chizmani chizishdan oldin uni tahlil qilish davomida unda bir nechta savol tug'iladi.

1. Nima uchun?
2. Qanday qilib?
3. Qanaqa vaziyatda?

Bu savollarga javob topish davomida talaba fikrlaydi va paydo bo'lgan muammoga yechim izlaydi. Shu vaziyatda tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi.

Dunyoqarashning kengligi, kreativ fikr yangi loyihalarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Bugungi zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bu talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatini shakllantirish, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish, muammoli vaziyatlarga duch kelgan payt yechim topa olish ko'nikmasini rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishdir.[6]

Ta'limda kutilgan natijani olish uchun tasviriy san'at va chizmachilik mashg'ulotlarida o'qituvchi turli topshiriqlar orqali talabalarda tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirish uchun dars davomida o'qituvchi talabalarga turli topshiriq beradi.

Topshiriq: *Har biringiz qo'lingizdagi chizmani tahlil qiling?*

1. Buyumning nomi?
2. Buyum nechta geometrik jismdan tashkil topgan?
3. Buyumning tarkibidagi geometrik jismlarning perspektiv tasviri qanday bo'ladi?
4. U qanday materialdan tayyorlangan?

Bunday topshiriqlarni avval kichik hajmdagi buyumlar yoki geometrik jismlarni tahlil qilish, so'ngra fazodagi barcha jismlar, ularning holati, tuzilishi va kuztuvchiga nisbatan qanday vaziyatda ekanligini tushuntirib, talabada tasavvur qila olish qobiliyatini shakllantirish mumkin. Bundan tashqari turli o'yin, metod va usullar orqali mavzuni mustahkamlash mumkin bulardan "Bir daqiqa", "B.B.B", "Insert", "Shakllarni yodda saqla", "10 ta dalil" metodlaridan ham foydalanish mumkin.

Xulosa, perspektivani yaxshi o'rganish idrok qilish qobiliyatini rivojlantirib, diqqatni jamlash, kuzatish jarayonida har bir narsani fazoda uch o'lcham balandlik, kenglik va uzunlik orqali tahlil qilishni o'rgatadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov I. Perspektiva. — T., «O'qituvchi», 1993.
2. Murodov Sh.K. va boshq. Chizma geometriya kursi. — T., «O'qituvchi», 1988.
3. Odilov P.O. Perspektiva. — T., TDPU, 2000.
4. Valiyev A.N. Perspektiva. — T., TDPU, 2006.
5. Valiyev A.N. Markaziy proyeksiyalashda pozitsion va metrik masalalar yechish. — T., TDPU, 2006.
6. I.U. Izbasarov, D.A. Rahmanova. *“Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda perspektiva fanining o'rni”*. International scientific journal *“Interpretation and researches”* Volume 1 issue 14 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2

